



YANGI O`ZBEKISTONDA TA`LIM OLISH IMKONIYATLARI

Ilmiy maslahatchi: Erdanova Zebiniso Abulkosimovna

Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

*Esonaliyeva Husnida Shavkatjon qizi O`zbekiston Davlat jahon
tillari universiteti 2-bosqich talabasi husnidaesonaliyeva@gamil.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O`zbekiston sharoitida ta`lim tizimi, ta`lim olish imkoniyatlari, bu sohada erishilgan yutuqlar hamda yurtimizda faoliyat olib borayotgan turli tashkilot va jamg`armalar haqida so`z boradi.

Abstract: This article discusses the education system in the conditions of New Uzbekistan, educational opportunities, achievements in this area, and various organizations and foundations operating in our country.

Аннотация: В данной статье рассматривается система образования в условиях Нового Узбекистана, возможности получения образования, достижения в этой сфере, а также различные организации и фонды, действующие в нашей стране.

Kalit so`zlar: Ta`lim to`g`risidagi qonun, intellektual rivojlanish, PISA (The Programme for International Student Assessment), “Prezident iqtidorli farzandlari”, milliy dastur, “El-yurt umidi”, stipendiatlar, “Ibrat farzandlari”.

Keywords: Law on Education, intellectual development, PISA (The Programme for International Student Assessment), “President's Gifted Children”, national program, “Hope of the Nation”, scholarships, “Children of Ibrat”.

Ключевые слова: Закон об образовании, интеллектуальное развитие, PISA (Международная программа по оценке образовательных достижений



учащихся), «Одаренные дети Президента», национальная программа, «Надежда нации», стипендии, «Дети Ибрата».

Darhaqiqat, kundan kunga rivojlanib borayotgan yurtimizda ta'limga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgani har birimizni quvontiradigan holat desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yo'lda yurtboshimizning shaxsan o'zlari fidokorlik bilan barchamizga o'rnak bo'layotganlari, ayniqsa, biz yoshlarni ilhomlantiradi.

Albatta, zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Davlatimizda maktabda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, ta'lim turlariga ko'ra quyidagilardan iborat:

Maktabgacha ta'lim va tarbiya. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi " Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.



Umumiy o`rta ta`lim va o`rta maxsus ta`lim. Umumiy o`rta ta`lim va o`rta maxsus ta`lim dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko`nikmalarni o`zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o`rta ta`lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga to`ladigan yilda qabul qilinadi.

Oliy ta`lim. Oliy ta`lim — turli oliy o`quv yurtlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi. O`zbekiston Respublikasining „Ta`lim to`g`risida“gi qonuni (1997)ga muvofiq, Oliy ta`lim o`rta maxsus yoki kasb-hunar ta`limi negiziga asoslanadi hamda ikki — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro`yobga chiqarishning ma`lum davriga qadar Oliy ta`lim o`n bir yillik umumiy o`rta ta`lim negizida ham amalga oshiriladi. E`tiqod erkinligiga amal qilinadigan O`zbekiston Respublikasida dunyoviy oliy o`quv yurtlari bilan birgalikda oliy diniy o`quv yurtlari ham bor. O`zbekistonda Oliy ta`lim davlat qaramog`idadir. Mamlakatda universitet Oliy ta`limi ustuvor maqomga ega. Bu tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon darajasida nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikka ega bo`lish imkonini beradi.

Oliy ta`limdan keyingi ta`lim. Oliy ta`limdan keyingi ta`limni oliy ta`lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta`limdan keyingi ta`lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o`rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta`minlaydi. Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da`vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo`yicha oliy ta`limdan keyingi ta`lim shakli hisoblanadi. Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da`vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo`yicha oliy ta`limdan



keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Bundan tashqari maktabdan tashqari ta'lim turi ham mavjud. Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Yurtimizdagi ta'lim tizimida e'tibor berishimiz kerak bo'lgan yana bir muhim jihat bu inkluziv ta'lim, ya'ni nogironligi bor bo'lgan bolalarga yaratilgan ta'lim turidir. O'zbekistonda inkluziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi. Mazkur qaror bilan, 2020-2025 yillar uchun xalq ta'limi tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025 yilgacha rivojlantirishning



maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. E'tiborlisi, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish (66-maqsad); yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish (70-maqsad) kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Davlatimizdagi ta'lim tizimini yanada yaxshilash maqsadida yurtboshimiz tomomidan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra 2030-yilgacha ta'lim sohasida bajarilishi kerak bo'lgan islohotlar va o'zgarishlar belgilab berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari



xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib boorish ularning asosiylaridir.

Bundan tashqari 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur ham yaratildi. Unga ko'ra maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish, jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish, o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab boorish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish kabi muhim yo'nalishlar belgilandi.

Qolaversa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 15-maydagi PF-86-son Farmoni bilan iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari belgilandi va ushbu tashabbus uch yo'nalishni o'z ichiga oladi.

• Birinchi yo'nalish – "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dasturi. Ushbu dastur mamlakat bo'ylab saralab olingan 1500 nafar eng qobiliyatli 9-sinf bitiruvchilarini jahondagi yetakchi universitetlarga tayyorlashga mo'ljallangan. Milliy dastur ishtirokchilariga Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning malakali maslahatchilari biriktiriladi. Bu maslahatchilar



o‘quvchilarga oliy ta’limga kirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, portfolioni kuchaytirishda yordam beradi.

- Ikkinchi yo‘nalish – Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatining tashkil etilishi. Bu maktab har yili O‘zbekistonning eng iqtidorli 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 nafar o‘quvchini qabul qiladi. Maktab xalqaro standartlarga mos ta’lim berib, dunyoning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalanadi. Ta’lim dasturi International Baccalaureate diplomi bilan yakunlanadi, bu esa bitiruvchilarga dunyoning yetakchi universitetlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyatini beradi.

- Uchinchi yo‘nalish – Prezident iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamjamiyati. Bu Hamjamiyat mamlakatning eng iste’dodli yoshlarini Prezident maktabi, Al-Beruniy xalqaro maktabi, “Yangi O‘zbekiston” universiteti hamda “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlarini birlashtiradi. Yoshlar davlat organlari va yirik kompaniyalar bilan bevosita muloqot qilish, mamlakat rivojiga doir muhim qarorlarda fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, Hamjamiyat tomonidan yoshlar uchun xalqaro miqyosdagi forumlar, konferensiyalar va treninglarga qatnashish imkoniyati yaratiladi va ular yetakchi ish beruvchilar bilan bevosita bog‘lanadi.

Albatta, ta’lim sohasidagi olib borilayotgan bu islohotlar yildan yilga o‘z samarasini bermoqda. Talabalar sonining o‘shishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va innovatsion infraturilmalar joriy etilishi bu sohadagi muvaffaqiyatlarning yaqqol dalilidir. Misol uchun, Respublikada 208 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda, talabalarning umumiy soni 1,4 milliondan oshdi.

183 ta ta’lim yo‘nalishi va 546 ta mutaxassislik bo‘yicha malaka talablari tasdiqlangan. Bundan tashqari, 1 278 ta o‘quv reja va 4 mingdan ortiq o‘quv dasturi ishlab chiqildi.



7 ta oliygohdagi 39 ta ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Shuningdek, Top-500 ga kirgan 9 ta xorijiy oliygoh bilan hamkorlikda 15 ta qo'shma ta'lim dasturi tashkil etildi.

4 970 nafar professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirdi.

2 510 nafar xorijiy professor-o'qituvchi O'zbekistonning o'quv jarayoniga jalb etildi.

169 195 nafar yoshlar kasbiy ta'lim muassasalariga qabul qilindi.

14 673 nafar ishsiz fuqaro 38 ta kasb bo'yicha o'qitildi.

418 ta kasbiy ta'lim tashkilotida 7 677 ta korxonalar bilan hamkorlikda 30,8 ming nafar o'quvchi 114 ta kasb bo'yicha dual ta'limga jalb qilindi.

Hududlarda 4 ta innovatsion faoliyat infratuzilma subyekti tashkil etilib, ularning umumiy soni 55 taga yetkazildi.

Oliygozlarda 27 364 o'rinli talabalar turar joyi va 10 500 o'rinli o'quv binolari barpo etildi.

Men tahsil olayotgan oliygoh – O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti ham bugungi kunda yurtimizdagi eng zamonaviy hamda davlat standartlariga to'laqonli javob bera oladigan universitet deb aytishimiz mumkin. Universitetda bakalavr va magistratura darajasidagi ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lib, taxminan 15ta bakalavr va 13ta magistratura yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar tillarni o'qitish, tarjima, jurnalistika, xalqaro munosabatlar kabi sohalarni qamrab oladi. Kunduzgi, shuningdek sirtqi va kechki ta'lim shakllari mavjud. Ta'lim o'zbek, rus va chet tillarida olib boriladi. Oliygozda jami 11 ta fakultet bo'lib, ularda 22 mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda. O'zDJTU ta'lim tamoyili sifatida "til va madaniyat o'rtasidagi aloqa"ni asosiy g'oya sifatida qabul qiladi. Talabalar nafaqat tilni o'rganish, balki madaniy kontestda uni qanday qo'llash va anglashni ham



o`rganadi. Universitet talabalari nafaqat mahalliy pedagoglardan, balki xorijdan kelgan o`qituvchilardan ham tahsil olishlari mumkin. Bundan tashqari oliygoh bir qancha xorijiy universitetlari va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, o`zaro almashinuv(exchange) loyihalari asosida o`qituvchilar va talabalar xorijlik hamkasblari bilan tajriba va ko`nikmalarini almashishlari mumkin bo`ladi. O`zDJTU talabalari universitetda o`qish jarayonida turli tanlovlar, sport musobaqalarida, ishtirok etishlari, shuningdek, “Prezident Granti”, “Alisher Navoiy”, “Islom Karimov”, “Faynberg” hamda “Rektor” stipendiyalari sohib(sohiba)lari bo`lishlari mumkin. Universitetda yana ”Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo`limi” ham mavjud. Ushbu bo`limning asosiy maqsadi iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga kerakli yordam berishdir.

Insonlarning ilm olishida yordam berish maqsadida yurtimizda juda ham kolab loyihalar, qolaversa, jamg`armalar ham tuzilgan. Ulardan eng ko`p foydalanilgani “Ibrat farzandlari” tashkiloti hamda “El-yurt umidi” jamg`armasi hisoblanadi. Ibrat farzandlari" – bu nodavlat notijorat tashkiloti bo`lib, dastlab xorijiy tillarni ommalashtirishga qaratilgan loyiha sifatida ish boshlagan. Ushbu tashkilot, qisqacha qilib aytganda, xorijiy tillarni o`rganishni osonlashtirish va keng ommaga yetkazishga harakat qiladi. Uning asosiy maqsadi – odamlarga xorijiy tillarni o`rganishda ko`maklashish va turli tillardagi bilimlarini oshirishga yordam berish. Tashkilot, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ko`lamli targ`ibot ishlarini olib boradi. Ular turli til kurslarini, o`quv materiallarini, video darslarni va boshqa resurslarni taqdim etadi. Maqsad odamlarni xorijiy tillarni o`rganishga undash va bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qilishdir.

El-yurt umidi“ jamg`armasi xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste`dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo`lga qo`yish yetakchi xorijiy ta`lim muassasalarida hamda O`zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali



malakali xodimlar tayyorlash maqsadida tuzilgan. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadigan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha „El-yurt umidi“ jamg'armasi etib tashkil etilgan. Jamg'arma xorijda stipendiatlarning malaka oshirishi, stajirovkasi va o'qishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Prezidentining „Iste'dod“ jamg'armasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi. Jamg'armaga xorijda ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni tashkil etishda Davlat test markazi tomonidan har tomonlama uslubiy yordam ko'rsatiladi. Jamg'arma orqali xorijiy mamlakatlarda ta'lim olgan stipendiatlarning ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini, shu jumladan, fan doktori ilmiy darajasini, maxsus sinovlarsiz nostrifikatsiyadan o'tkazish (ekvivalentligini belgilashni), ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ta'minlanishi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston barcha ilm talabida bo'lganlar uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Olib borilayotgan barcha islohotlarning zamirida inson manfaatlari yotadi. Fuqarolarning ilmi bo'lishi va erishgan har yutuqlari yurtimiz ravnaqiga xizmat qilishi shubhasiz. Bu yo'lda Prezidentimiz ,ayniqsa, yoshlarning ilm olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratayotir. Zero ular bejizga shunday deb aytmaganlar : “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM: JORIY O'ZGARISHLAR VA
TARAQQIYOT YO'NALISHLARI



<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7337-o-zbekistonda-inklyuziv-ta-lim-joriy-o-zgarishlar-va-taraqiyot-yo-nalishlari.html>

2. Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi - Xalq so'zi <https://share.google/k3jAwlnxD5CSy6aBK>

3. O'zbekistonda ta'lim - Vikipediya
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim

4. PF-5712-сон 29.04.2019. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
<https://share.google/ISuetkSHrHLbupiw7>

5. "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusi – yoshlar orzularini ushaltiradi
<https://share.google/DMrLsM0VVG6gScRIU>

6. O'zbekiston oliy va kasbiy ta'lim tizimidagi so'nggi yutuqlar va rivojlanishlar
<https://share.google/5aDJWRkbssPj7wPra>

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/El-yurt_umidi_jamg%E2%80%98armasi